# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*
*(fermer  va dehqon xo‘jaliklaridan  tashqari)*

(Davlat xizmatlari markazlari ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



NAMANGAN VILOYATI
UZSTAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar**
38 374
110,9 %

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar**
36 914
110,4 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yilda)**
5 774
86,3 %

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha*
*2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

**24 285** Mas’uliyati cheklangan jamiyat

**1 337** Oilaviy korxona

**152** Unitar korxona

**6 260** Xususiy korxona

**23** Aksiyadorlik jamiyati

**419** Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2022- yil yanvar-dekab oylarida, birlikda )*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(yanvar-dekabr oylarida)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



**33 598** ro‘yxatdan o‘tgan
- **1 580** kichik korxonalar
- **32 018** mikrofirmalar

**32 305** faoliyat ko‘rsatayotgan
- **1 567** kichik korxonalar
- **30 738** mikrofirmalar

**5 542** 2022- yilda yangi tashkil etilgan
- **34** kichik korxonalar
- **5 508** mikrofirmalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 414 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 200 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 337 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 321 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga yoki 93,6 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 25 206 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 509 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24 285 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 269 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 912 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 500 taga yoki 90,8 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 322 tani tashkil etib, ulardan 317 tasi yoki 98,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 30 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 42 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga oshganligini ko‘rish mumkin.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvabr holatiga, birlikda)*



# Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2023 yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| Rossiya Federatsiyasi | **73** | 52 | 21 |
| Qozog‘iston Respublikasi | **15** | 9 | 6 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | **58** | 29 | 29 |
| Qirg‘iziston Respublikasi | **10** | 8 | 2 |
| Tojikiston Respublikasi | **13** | 10 | 3 |
| Turkiya Respublikasi | **43** | 15 | 28 |
| Hindiston Respublikasi | **15** | 6 | 9 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | **29** | 20 | 9 |
| Singapur Respublikasi | **4** | 2 | 2 |
| Eron Islom Respublikasi | **5** | 2 | 3 |

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Namangan viloyati** | **317** | **185** | **132** |
| **Namangan shahri** | **112** | 58 | 54 |
| **Mingbuloq** | **6** | 2 | 4 |
| **Kosonsoy** | **32** | 22 | 10 |
| **Namangan** | **20** | 16 | 4 |
| **Norin** | **11** | 6 | 5 |
| **Pop** | **32** | 23 | 9 |
| **To‘raqo‘rg‘on** | **14** | 7 | 7 |
| **Uychi** | **18** | 14 | 4 |
| **Uchqo‘rg‘on** | **10** | 5 | 5 |
| **Chortoq** | **24** | 12 | 12 |
| **Chust** | **24** | 12 | 12 |
| **Yangiqo‘rg‘on** | **14** | 8 | 6 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 112 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,3 %), Kosonsoy va Pop 32 tadan (10,1 %), Chortoq, Chust 24 tadan (7,6 %dan), Namangan 20 ta (6,3 %) ni tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro‘yxatga olingan 38 374 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (33,0 %), Chust (8,1 %), Namangan (6,6 %), Uychi (6,5 %), Uchqo‘rg‘on (6,4%), Pop (6,3 %), To‘raqo‘rg‘on (6,2 %), Kosonsoy (6,1 %), Chortoq (6,0 %), Yangiqo‘rg‘on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to‘g‘ri

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro‘yxatga olingan 5 774 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (30,8 %), Uchqo‘rg‘on (8,5 %), Chust (8,0 %), Chortoq (7,1 %), To‘raqo‘rg‘on (6,5 %), Uychi (6,3 %), Namangan (6,1 %), Norin (6,0 %), Pop (5,9 %), Yangiqo‘rg‘on (5,6 %), Kosonsoy (4,9 %) hamda Mingbuloq (4,3 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.



# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko‘rsatayotgan 24 285 ta mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (36,0 %), Uychi (7,0 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,4 %), Kosonsoy (6,3 %), Uchqo‘rg‘on (6,2 %), Namangan (6,0 %), Chust (5,8 %), Norin (5,4 %), Yangiqo‘rg‘on (5,3 %), To‘raqo‘rg‘on (5,1 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*




2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi”da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitstiyalarni jalb etish strategiyasini amalga amalga oshirish muhim yo‘nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 305 ta oilaviy korxonalarning), ulushi Namangan shahri (32,4 %), To‘raqo‘rg‘on (18,1 %), Yangiqo‘rg‘on (13,4 %), Namangan (8,4 %), Chortoq (6,8 %), Pop (5,0 %), Chust (4,0 %), Mingbuloq, Uychi (3,1 %dan), Norin (2,2 %), Kosonsoy (1,9 %), Uchqo‘rg‘on (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*






## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyati Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.:69-227-84-96**